

65
0-40



ЎЗБЕКISTON TARIXI 2



65
0-40

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON TARIXI

II – jild
(XIX asr II yarmi – 1991-yil)

(Oliy o'quv yurtlari nomutaxassis talabalari uchun darslik)

To'ldirilgan, qayta ishlangan 2-nashr

-3539-

Cravet

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent
«VNESHINVESTPROM»
2019

UO'K 985.521.4
KBK 521.4

Oliy o'quv yurtlari nomtaxassis talabalari uchun mo'ljallangan ushbu "O'zbekiston tarixi" darsligi tariximizning XIX asr II yarmidan 1991-yilgacha bo'lgan davrini o'z ichiga qamrab olgan. Mazkur darslik mustaqillik-yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umumiy tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Ushbu darslik bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, yosh tadqiqotchilar, tarixchi-olimlar ham keng foydalanishlari mumkin. Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar O'zMLning "O'zbekiston tarixi" kafedrasida qabul qilinadi.

Mas'ul muharrir va ijodiy guruh rahbari:

Tarix fanlari doktori, professor R.H.Murtazayeva

Tagirichlilar:

Tarix fanlari doktori, professor N.U.Musayev

Tarix fanlari doktori, professor D.B.Bobojonova

Mualliflar jamoasi:

Tarix fanlari doktori, professor R.H.Murtazayeva

Tarix fanlari doktori, professor X.E.Yunusova

Tarix fanlari doktori, professor B.J.Eshov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent A.A.Odilov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent K.D.Saipova



ISBN 978-9943-4887-9-3

©VNESHINVESTPROM, 2019

KIRISH

XIX – asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida O'rta Osiyoda mavjud mustaqil o'zbek xonliklari davlatчилиги tizimlar chek qo'yildi, xonliklar imperiya vassallariga aylantirildi. Ularning ustidan "harbiy-ma'muriy boshqaruv" deb nomlangan mustamlakachilikka xos zo'ravonlik tartiboti o'rnatildi. Ogibadta mehnatkash aholi ikki tomonlama-mahalliy va mustamlakachi hukmdorlar jabr-zulmi girdobiga tortildi. Bunga qarshi o'lka xalqlarning keng qamrovli ozodlik harakatlari avj oldi.

Shunday vaziyatda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning xom ashyo bazasiga aylantirishni ustuvor davlat siyosati sifatida belgilab oldi.

Turkiston iqtisodiy hayoti ham aynan shu maqsadga bo'ysindirildi. O'lka xalqlarining erk va hurriyat uchun kurashi milliy-ozodlik harakatlari mazmun-mohiyatida o'z aksini topgan bo'lsa, milliy taraqqiyparvar kuchlarining ma'rifatchilik harakati jadicilikda namoyon bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, Rossiya imperiya mustamlakachiligi siyosati ma'lum darajada o'zgacha qolip va andozalarda sovet hokimiyati hukmronligi davrida ham namoyon bo'ldi. Ziddiyatli va murakkab jarayonlarga boy bo'lmish sovet hokimiyati hukmronligi davri O'zbekistonda ham o'zining asoratli oqibatlarini qoldirdi. Mazkur davrda O'zbekiston markazning xom ashyo bazasi va mahsulot bozoriga aylantirildi, qishloq ho'jaligida paxta yakkahokimligi qaror topdi, madaniy-ma'rifiy hayot butkul kommunistik mafkura izmiga solindi, o'zbek hulqining boy tarixiy-madaniy merosi, an'ana va qadriyatlar, diniy e'tiqodi oyoq osti qilindi, ijtimoiy hayotda qatag'on-zo'ravonlik, ma'muriy buyruqbozlik siyosati natijasida kishilar ongiga qo'rquv ruhi singdirilib, manqurtlik, loqaydlik va boshqa salbiy illatlar yuzaga keldi, xalqimizning ko'plab asl farzandlari qatag'on qilindi. Quloqlashtirish, jamoalashtirish siyosati esa xalqimiz boshiga ko'plab kulfatlarni soldi va hokazo.

Yugorida ta'kidlangan tarixiy jarayonlar mustaqillik-yillarda tarixchi olimlar, tadqiqotchilar tomonidan ilmiy va hollisona tarzda o'rganildi, bu borada ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi, e'tiborga molik qator monografiya, qo'llanma, darsliklar chop etildi.

E'tiborga havola qilinayotgan ushbu darslik mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan bo'lsada, bir qator jihatlari bilan ulardan farqlanishini qayd etish lozim. Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining yangi darslik yaratish to'g'risidagi ko'rsatmasiga muvofiq tarzda tayyorlandi. Ushbu darslikda mustaqillik-yillarida Rossiya imperiyasi va sovetlar hukmronligi davri tarixiga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hulosalari, innovatsiyalar, keng qamrovi zamonaviy o'zbek hamda chet el tarixiy adabiyotlari, arxiv hujjatlari ma'lumotlaridan samarali foydalanilgan. Shu bois kitobda quyida qayd qilinayotgan jihatlar e'tiborga sazovordir:

- har bir mavzu bo'yicha masalaning tarixshunosligi asosli tarzda yoritib berildi;

- Rossiya imperiyasi bosqini, o'lka halqlarining ozodlik harakatlari, mustamlaka Turkistonidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari zamonaviy talqinda yangicha nazariy-metodologik yo'nalishda ko'rsatildi;

- sovet hokimiyatining mamlakatimizda olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy madaniy siyosatining mustamlakachilik mohiyati tahlili etildi;

- paxta yakkahokimligi ekologik tahdid, O'zbekistonning markaz xom ashyo bazasiga aylanishining asorati oqibatlari yangi materiallar orqali yoritib berildi;

- mustaqillik-yillarda amalga oshirilgan mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlari, xususan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari xulosalaridan atroflicha foydalanildi.

Kitobdagi farqli jihatardan yana biri - bu fan va ta'lim uyg'unligi nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda zamonaviy adabiyotlarga qo'yiladigan barcha talablarni o'zida jam eta olganligi hisoblanadi. Bu esa mazkur davr bo'yicha ilmiy

izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun vatanimiz tarixshunosligi hamda innovatsiyalardan foydalanishda zarur qo'llanma rolini ham o'tashi mumkin.

Mualliflar jamoasi darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

17-MAVZU. O'ZBEK XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI. JADIDCHILIK.

Reja:

1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarida ijtimoiy-siyosiy ahvol. Rossiya imperiyasining xonliklar hududlariga dastlabki harbiy harakatlari.
2. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishining siyosiy va iqtisodiy sabablari.
3. Xonliklarni bosib olish amalga oshirilgan harbiy harakatlari. Turkiston general-gubernatorligi.
4. Qo'qon xonligining tugatilishi. Farg'ona viloyati.
5. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining hududlariga bosqinchilik yurishlari. Amirlikning qaram davlatga aylantirilishi. Abdulmalik to'ra (Katta to'ra) boshchiligidagi ozodlik harakati.
6. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi.
7. Rossiya imperiyasining mustamlaka boshqaruv usuli. Turkistonni Rossyaning sanoat o'lkasiga aylantirilishi. Hurnamandchilik. Temir yo'llar. Agrar siyosat.
8. Rossiya imperiyasining Turkistonga aholini ko'chirish siyosati Mustamlaka Turkistonidagi madaniy-ma'rifiy hayot.
9. Milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik.
10. Rossiya imperiyasining Turkiston boyliklarini talash siyosati.

1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarida ijtimoiy-siyosiy ahvol. Rossiya imperiyasining xonliklar hududlariga dastlabki harbiy harakatlari.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari, mustamlakachilik siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy

hayot, milliy-ozodlik harakatlari, umuman, imperiya bosqinining maqsad-mohiyati va oqibatlari haqidagi manbalar – qo'lyozma asarlar, esdaliklar, xotiralar, hujjatlar va arxiv ma'lumotlari majmui katta ko'pchilikni tashkil etadi. Afssuski, sovet davrida ularning barchasi bir yoqlama tadqiq etilib, masalaning mohiyatiga xolisona baho berilmadi.

Mavzu bo'yicha ko'plab tarixiy asarlar mavjud bo'lib, ularning eng muhimlari quyidagilardir: Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotin mang'it'ya», Muhammad Attor Ho'gandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Ibratning «Farg'ona tarixi», Yusuf Bayoniyning «Shajari Xorazmshohiy», Hakim Ma'sumxonning «Murtaxib ut-tavorix», Muhammad Sodiq Munshiyning «Qo'qon xonligi tarixi», «Tarixi Manzum», Aziz Marg'iloniyning «Tarixi Azizi», Ahmad Donishning «Mang'it amirlari tarixi», Muhammad Fozilbekning «Mukammali tarixi Farg'ona» asarlari va hokazo.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti jamg'armasida ham mavzuning u yoki bu tomonlarini yorituvchi manbalar turkumi saqlanadi. Undan tashqari, arxivda saqlanayotgan turli hujjatlar, XIX asrning ikkinchi yarmidan faoliyat ko'rsatgan matbuot ko'plab nashrlari mavzu haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

O'tgan asrning 20-yillarida G.I.Safarov, P.G.Galuzo, A.Z.Validiy va boshqa kabi mualliflarning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati o'z aksini topdi.

Ushbu mavzuni tadqiq etish, o'rganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo'lishiga qaramay, mustaqillik-yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishi hamda o'lkada olib borilgan mustamlakachilik siyosat ilmiy va haqqoniy tarzda yoritilmoqda. Ushbu mavzuning turli jihatlarini bo'yicha H.Ziyoev, N.Abduraximova, F.Ishoqov, H.Sodiqov, F.Ergashev, R.Shamsuddinov, D.Ziyoeva, I.Ismoilova, X.Yunusova, P.Ravshanov, Q.Umonov, Z.Choriev, Sh.Vohidov, N.Musaev, R.Xoligova, A.Odirov kabi ko'plab olimlarimizning